

**INGLIZ TILINI YANGI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
YORDAMIDA O'QITISH**

Sharifova Ma'mura Bahodir qizi

O'zbekiston Respublikasi,

IIV Surxondaryo akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14278062>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta kasb-hunar ta'limalda, ya'ni ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida ingliz tilini yangi zamonga mos pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish va natijada maksimal samaradorlikga erishish yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaollik, o'quvchi o'quv jarayoni, o'qitish usuli, pedagogik texnologiya, zamonaviy dars, yuqori daraja.

**TEACHING ENGLISH WITH THE HELP OF NEW MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES**

Abstract. In this article, effective use of modern pedagogical technologies of the English language in secondary vocational education, i.e., in academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs, and as a result, achieving maximum efficiency.

Key words: interactivity, student learning process, teaching method, pedagogical technology, modern lesson, high level.

**ОБУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ НОВЫХ СОВРЕМЕННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация. В данной статье описано эффективное использование современных педагогических технологий английского языка в системе среднего профессионального образования, то есть в академических лицеях МВД, и как следствие достижение максимальной эффективности.

Ключевые слова: интерактивность, процесс обучения учащихся, метод обучения, педагогическая технология, современный урок, высокий уровень.

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartlarini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiyin davrni boshdan kechirmoqda. Qiyinchiliklar, shuningdek, asosiy o'quv rejasida alohida fanlarni o'rganish uchun soatlar qisqartirilganligi sababli paydo bo'ladi.

Ushbu holatlarning barchasi ta'lim jarayonidagi zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq ta'lim va tarbiyaning innovatsion vositalari, shakllari va usullarini izlash va, shu bilan birgalikda, fanlarni o'qitish metodikasi sohasida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishni talab qiladi. O'quv jarayonida o'quchining kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish maqsadida va hamda o'quv vaqtidan unumli foydalanish va uy vazifasi uchun ajratilgan vaqt ni qisqartirish orqali o'quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirgan holda ta'lim sifatini yanada samarali oshirish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni ilgari surish asosiy maqsadlarimizdan biriga aylanib kelmoqda.¹

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonining individualizatsiyasi, masofasi va o'zgaruvchanligi, yoshi va ta'lim darajasidan qat'iy nazar, o'quvchilarning akademik harakatchanligiga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim texnologiyasi – bu o'quv jarayonini loyihalash, amalga oshirish, baholash, o'zgartirish kiritish va keyinchalik takomillashtirishning tizimli usuli deb hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida eng samarali bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish urfga aylanib bormoqda-yu, ammo natijaga kelganda esa o'z samarasini to'liq shaklda ko'rsata olmayapti.² Ushbu maqolada esa aynan ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash va ularning samaradorligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Hozirgi kunda biz ingliz tili darsini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Bu o'qitishning yangi shakllari va usullaridan foydalanish emas, balki umuman chet tillarini o'qitish jarayoniga tubdan yangi yondashuvdir. Ma'lumki, ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadi – bu muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchiga ingliz tilini amaliy o'zlashtirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishdir.

Bunday sharoitda o'quvchi o'z salohiyatini namoyon qilishi va o'quv materialini o'zlashtirishda ijodiy yondashishi ham amalga oshiriladi. Chet tillarni o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ilg'or interfaol texnologiyalardan foydalanish nafaqat barcha lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'quvchining shaxslararo ko'nikmalarini (interpersonal skills) rivojlantirishga ham yordam beradi.³

¹ Нестерова Н.В. Информационные технологии в обучении английскому языку.- Иностранные языки в школе.//№8, 2005

² Beghetto, R. A. (2020). Creativity in the Classroom: The Role of Uncertainty in Fostering Creativity in Students. Educational Psychology Review, 32(4), 835-846.

³ Шаходжаев М. А. и др. Использование инновационных образовательных технологий в развитии творческих способностей студентов //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145).

Bugungi kunda Internetdagi axborot resurslaridan foydalangan va ularni o'quv jarayoniga integratsiyalashtirgan holda, ingliz tili darslarida quyidagi bir qator didaktik muammolarni yanada samarali hal qilinishiga guvohi bo'lishimiz mumkin:

- Turli xil murakkablik darajasiga ega bo'lgan materiallardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish orqali o'qish va yozish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- Internetdagi original audio matnlar asosida tinglash ko'nikmasini rivojlantirish;
- “Case-study” metodi orqali o'quvchining faol va passiv so'z boyligini oshirish va ularning real hayotda uchraydigan holatlarda o'zini tutishi va reaksiyasini takomillashtirish.

Endi esa zamonaviy Internet-resurslar haqida batafsilroq to'xtalib o'tsak ham bo'ladi.

Hozirgi kunda, o'quv jarayonini optimallashtirish va darsni yanada interfaol tarzda olib boorish imkonini beruvchi, boshqa keng tarqalgan Internet-resurslarga nisbatan yangi resurs deb “Kahoot” hisoblanadi. Bu o'qituvchi o'zining onlayn viktorinalar, testlar va so'rvonomalarni yaratishi mumkin bo'lgan onlayn platformadir. Ushbu platformada turli mavzular va har xil qiyinchilik darajasidagi tayyor vazifalar to'plami ham mavjud. O'quvchilar planshetlar, smartfonlar, noutbuklar yoki boshqa Internet vositalaridan foydalangan holda testlarga javob berishlari mumkin. “Kahoot”da yaratilgan topshiriqlar fotosuratlar, rasmlar va videolarni kiritish imkonini beradi. Agar o'qituvchi xohlasa savollarga javob berish uchun ball kiritishi ham mumkin.

Javob variantlari turli rangdagi geometrik shakllar bilan ifodalanadi. Ushbu xizmatdan foydalanish o'quvchilarning fikr-mulohazalarini olishning samarali usuli deb hisoblanib, shuningdek, o'quvchilar bilimini qiziqarli tarzda sinab ko'rishning original yondashuvi ham desa bo'ladi.

Yana bir mobil ilova haqida batafsilroq to'xtalib o'tmoqchiman – bu “Plickers.” Ushbu Internet-resurs o'qituvchining ishini osonlashtirishga imkon beradi va test topshiriqlarini tekshirish uchun sarflangan vaqtini bir necha martaga qisqartirish imkonini yaratadi. Undan foydalanish juda oddiy, lekin natijasi esa ancha samarali.⁴ Boshlash uchun o'qituvchi va o'quvchi “Plickers.com” saytida ro'yxatdan o'tishlari kerak. Har bir o'quvchiga QR-kodli karta taqdim etilib, unda u berilgan savollarga javobini ko'rsatadi. “Plickers” dasturidan foydalanish o'quvchilar bilimini kuzatish va uni qiziqarli, hatto quvnoq tarzda bajarish imkonini beradi va shuni ta'kidlash joizki, bu texnologiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi fikr-mulohazalar almashinuvini ancha soddallashtiradi.

⁴ Defined Learning. (2024). Fostering Innovation Part 1: The Crucial Role of Creative Thinking in Education. Available at: <https://blog.definedlearning.com>

Endi esa, Internet va axborot resurslaridan biroz chetga o'tib, o'quv jarayonidagi bor imkoniyatlardan, ya'ni hech qanday mobillikni va Internet tarmoqlarini talab qilmaydigan texnologiyalardan foydalanish haqida ham biroz to'xtalsak. Va birinchi bo'lib diqqatimizni "Ta'larning namunaviy usuli" (ishbilarmon o'yinlar ko'rinishidagi darslar, sud ko'rinishidagi darslar, auktsion ko'rinishidagi darslar, matbuot anjumani ko'rinishidagi darslar) ga qaratsak.

Ushbu turdag'i darslar o'quvchilarning qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, qiziquvchanlikni, jamoada ishlash va o'zaro o'rtoqlik yordamini ko'rsatish ko'nikmalarini oshiradi.

"Mind-Map" usuli - fikrlar, g'oyalar va suhbatlarni yozib olish uchun oddiy, lekin samarali pedagogik texnologiya. Yozish tez va assotsiativ tarzda sodir bo'ladi. Mavzu markazda joylashgan bo'ladi. Bu usul bir kishi yoki guruh bo'lib bajariladi va bu har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ifodalaydi, ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi.

"London sarguzashtlari" - London xaritasidan foydalanadigan qiziqarli o'yin. O'yinchilar (o'quvchilar) London bo'ylab sayohat qilishadi va sayohat oxirida ma'lum xaridlarni amalga oshirgandan so'ng muayyan bir punktga (masalan, Xitrou aeroportiga) borishlari kerak boladi.

O'yin muntazam dars uchun mo'ljallangan bo'lib, turli vaziyatlarda kontekstga mos so'z va iboralardan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Natijada, o'quvchilar o'zlarini real hayotdagi voqealarda qatnashuvlarini ko'rib, til ko'nikmalarini yanada rivojlantiradilar.

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va ma'lumotlarga boy tashkil etish imkonini beradi. Darsda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniib, ingliz tilini o'qitish jarayoniga yangicha nuqtai nazardan qarash va psixologik mexanizmlarni o'zlashtirish mumkinligiga amin bo'lishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Нестерова Н.В. Информационные технологии в обучении английскому языку.- Иностранные языки в школе.//№8, 2005
2. Шаходжаев М. А. и др. Использование инновационных образовательных технологий в развитии творческих способностей студентов //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145).
3. Defined Learning. (2024). Fostering Innovation Part 1: The Crucial Role of Creative Thinking in Education. Available at: <https://blog.definedlearning.com>
4. Beghetto, R. A. (2020). Creativity in the Classroom: The Role of Uncertainty in Fostering Creativity in Students. Educational Psychology Review, 32(4), 835-846.

5. Craft, A. (2011). *Creativity and Education Futures: Learning in a Digital Age*. Trentham Books.
6. Jeffrey, B., & Craft, A. (2004). Teaching Creatively and Teaching for Creativity: Distinctions and Relationships. *Educational Studies*, 30(1), 77-87.